

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.**

*Qilichova Nigora Abduvaitovna*

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 2-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, axborot texnologiyalari, kompyuter, pedagogik bilimlar, video va audio, grafika.

Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar,

bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi, "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir.[1] Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 81- yildagi yalpi oboroti 4 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 94-yil esa 16 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni mul'timedia vositalarisiz tasavvur qilib bolmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkun.[2] Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq

muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi. Ta'limdagi islohatlar natijasida o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish zarurdir. Ilm-fan, texnika, unda axborot texnologiyasining o'sishini jadallashuvi ilmiy texnikaviy axborotlarning rivojiga tez-tez yangilanishlar olib keldi. Bundan ma'lumki, ma'lumotlar, axborotlarni uzatish metodini yangilash, takomillashtirishni talab etmoqda.[3] Boshlang'ich ta'lim jarayonida shunday o'qitish metodlarini tatbiq etish joizki, ular natijasida o'quvchilarni mustaqil o'qish, fikrlashga, axborotlar bilan ijodiy ishlashga o'rgatsin, o'quvchilarni o'ziga xos fikrlashga yo'llasin, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirsin, o'qishga, mustaqil bilim olishga qiziqishini oshirsin, o'z ish faoliyatiga tanqidiy yondashishni tarbiyalasin, o'zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitiga tez moslashish ko'nikmalarini shakllantirilsin. Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchilarning xotirasida u

yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanayotgan axborot ko'lami, ularni o'zlashtirish va qayta ishlashga imkon beruvchi yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni yaratish, amaliyotga joriy etish ta'lim bosqichlarining barcha bo'ginlaridagi jarayonlarni kompyuterlashtirish yo'lida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy-metodik ishlar, turli umumta'lim fanlaridan elektron darslik va pedagogik dastur vositalariga zaruriyat kundan-kunga oshib bormoqda.[4]

Axborot - so'zi lotincha «informatio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «tushuntirish, bayon etish» - degan ma'nolarni anglatadi.

«Axborot texnologiyalari» iborasidagi «texnologiya» so'zi lotincha «thexnos» - san'at, xunar, soha va «logos» - fan degan ma'noni bildiradi. Ya'ni texnologiya - biror vazifani bajarishda uning turli xil usullari ko'rinishini bildiradi.

Axborot texnologiyalari axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidir.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy shartlari: zamonaviy ta'lim usullaridan bo'lgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, eng so'nggi ta'lim vositalarini qo'llash hamda ushbu jarayon samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yuqori metodik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat. Masofali ta'lim o'qitishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida ta'lim tizimining barcha sohalarida o'z o'rnini topmoqda. Jumladan, Internet tarmog'idagi o'quv materiallaridan keng foydalanilmoqda. Internetdan olinadigan materiallarning aksariyati multimedia shaklida yaratilgan. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun «Kimning uyi qayerda?», «Uy yasash» taqdimotlari va turli xil kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 noyabrdagi «Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-6079-son farmoni

asosida ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash yuzasidan qator vazifalarni belgilab beradi. Axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasining shu qadar ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro nufuzi, demokratik institutning rivoji darajasi axborot texnologiyalarning tadqiqotiga bog'liq bo'lib bormoqda. Axborot insoniyatning nihoyatda muhim va cheksiz resursiga aylandi. Bu esa qaysi sohaga bo'lishidan qat'iy nazar, internetning milliy sigmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi. O'qitish va o'rganish jarayonida Internet texnologiyalariga katta o'rin ajratilmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayoniga ko'maklashib, o'qitish dasturlari, o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklar va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda, bu esa o'z navbatida foydalanuvchilarga ilmiy maktab ishlarini ta'minlamoqda. O'quvchilarni internetdan olayotgan axborotlariga tanqidiy yondoshish va uning foydali manbalari asosida o'z duyoqarashini kengaytirish, g'arazli manbalar asosida o'z dunyoqarashini kengaytirish, g'arazli ma'lumotlarni inkor eta bilish g'oyat muhimdir.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin.[5] Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv material bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish

yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.[6]

Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.[7]

Boshlang'ich ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini belgilash, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning eng muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasasi umumiy faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlash lozim. Boshlang'ich ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli y'o'nalishlari zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tarmoqli axborot texnologiyalaridan foydalanishni bildiradi. Bunday vositalarni qo'llashda umumta'lim maktablar va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining samaraligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Kompyuter o'quv manbalarini kengaytirib beradi, ya'ni turli multimedialli darsliklar, elektron kitoblar va boshqalaridan foydalanish imkoniyati keng tarqalmoqda.[8] Shularni inobatga olgan holda bugungi kunda axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yadi, shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinflardagi ta'limda ham ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan ta'lim faoliyatini



muhitining axborotlashtirishini talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida ishlab chiqilgan “2008-2012 yillarda uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko’tarish” dasturida ham ta’lim muassasalarida sog’lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg’or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o’qitish sifatini yangi bosqichga ko’tarish masalalari belgilangan vazifalar sifatida ta’kidlangan. Ta’lim taraqqiyoti yangi yo’nalish axborotlashgan ta’lim multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan ta’lim tizimini maydonga olib chiqdi. Kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimidagi, o’quv-tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich xal etish yo’llari va vositalari yuqorida tilga olingan davlat hujjatlarida belgilab berilgan.

Boshlang’ich sinflarga dars o’tishda asosan o’yin usullaridan, interfaol metodlardan, modulli texnologiyalardan, noan’anaviy dars shakllaridan, fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalarda mustaqil ishlashni, o’z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, zamonaviy ta’lim metodikasini bilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Afsuski, ayrim o’qituvchilar hali ham dars jarayonida an’anaviy o’qitish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan, ta’lim tizimiga oid saytlarda berilgan metodik tavsiyalardan yetarlicha foydalanmayapti. Shu bois, hozirda o’qitish jarayonida qo’llaniladigan ta’lim metodlari va vositalari, o’qitish jarayonini tashkil etish zamonaviy shakllarini o’rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Xulosa** qilib aytganda, boshlang’ich sinflarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o’rganganlarini hayot bilan bog’lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O’qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg’or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi

ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Aytish joizki, multimedia ilovalarini har bir darsda qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yana-da rivojlanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborot kommunikativ vositalarining boshlang'ich sinf darslarida qo'llanilishi darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasi tubdan yangilanib, o'qitishning ilg'or usul va metodlarini amalda qo'llash bo'yicha ulkan tajriba to'plandi. Bugun zamon shiddatli tarzda rivojlanyapti. Demak, umumta'lim fanlarini o'qitishga zamon talablari asosida yondashish, ta'limda eng ilg'or texnologiyalarni qo'llash davr talabi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.S. G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalar uchun darslik / Akademik S.S. G'ulomovning unuimiy tahriri ostida. -«Sharq», 2000.[1]
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.[2]
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) [3]
4. R. Mavlonova "Pedagogika" Toshkent "O'qituvchi" 2004[4]
5. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008[5]
6. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" Toshkent "O'qituvchi" 2010[6]
7. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. O'qituvchi. 1991.[7]
8. Bobaqulova D.M. Umumiy pedagogika (o'quv qo'llanma). -Toshkent, 2021.-256 s.[8]